



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “24” mart

QAROR № 4

Toshkent sh.

**“Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha Nizom”ni
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2020- yil 3- avgustdagi PQ- 4796- son qaroriga muvofiq, uy xo‘jaliklarida tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish uslubiyatini yanada takomillashtirish maqsadida, Statistika agentligi **qaror qiladi:**

1. “Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha Nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 18- martdagi “Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash haqida” 10- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov



*Q-0010